

**O‘ZBEK AYOLI****Ozodaxon Komilova Bobomurod qizi***Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi 7- “B” sinf o‘quvchisi*

Chiroyda tengi yo‘q husn-u jamoli,  
U kabi topilmas, mehr-u vafoli,  
Ta’riflay deyman-u so‘zlarim yetmas,  
U o‘zbek onasi, o‘zbek ayoli.

Ifori gullarga o‘rnak bo‘lgudek,  
Bag‘ri keng misli bir ulkan daryodek,  
Oltindan qimmatdir ibo-hayoli,  
U o‘zbek onasi, o‘zbek ayoli.

Kerak bo‘lsa qutqarar u dunyoni,  
Qalbi oppoq, bus-butundir iymoni,  
Har bir aytgan so‘zi shirin ma’noli,  
U o‘zbek onasi, o‘zbek ayoli.

Dardlari ko‘p, ammo qilmaydi oshkor,  
U har doim bo‘lar, elga madadkor,  
Uningdek topilmas jufti-haloli,  
U o‘zbek onasi, o‘zbek ayoli.